



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 16-aprel, № 75 (9246)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA BUTUNJAHON TAEKVONDO FEDERATSIIYASI HAMKORLIGI YANGI BOSQICHGA CHIQMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar o'rtasidagi jahon chempionati doirasida mamlakatimizda bo'lib turgan Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti Cho Chung Vonni qabul qildi.



Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda yurtimizda taekvondo bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni deyarli ikki baravarga oshib, 35 ming nafarga yetdi. Vakillarimiz Parijdagi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida ushbu sport turi bo'yicha umumjamo'a hisobida faxrli uchinchi o'rinni qo'lga kiritishdi.

Uchrashuv davomida Cho Chung Von O'zbekistonda sportni jadal rivojlantirish, yoshlar orasida jismoniy tarbiyani targ'ib etish, zamonaviy infratuzilmani yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholadi.

Tomonlar hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, professional sportchilar va hakamlarni tayyorlash, yuqori texnologiyalar, sun'iy intellekt, sport tibbiyoti borasida ilg'or tajribalarni almashish va nufuzli xalqaro musobaqalarni O'zbekistonda muntazam o'tkazish masalalarini muhokama qildilar.

Uchrashuv yakunida

O'zbekiston Prezidenti mamlakatimizda taekvondoni ommalashtirishga qo'shgan shaxsiy hisssasi, sport orqali jahon xalqlarining o'zaro do'stlik va hamjihatlik aloqalarini kuchaytirish borasidagi katta xizmatlari uchun Cho Chung Vonni davlatimizning yuksak mukofoti — "Do'stlik" ordeni bilan taqdirladi.

Cho Chung Von, o'z navbatida, Prezident Shavkat Mirziyoyevga sportni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hisssasi uchun Butunjahon taekvondo federatsiyasi tomonidan ta'is etilgan oliy mukofot — "Shon-sharaf" ordenini topshirdi.

Ushbu orden ilk bor aynan davlatimiz rahbariga taqdim etilgan, bu yurtimizda sportni, xususan, taekvondoni rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sport tibbiyoti turmush tarzini keng targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlis islohotlarning xalqaro miqyosda e'tirof etilganidan dalolat berishi ta'kidlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Mab'uat xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA DELEGATSIIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-aprel kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning birinchi o'rinbosari Sergey Kiriyenko boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish doirasida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Barcha yo'nalishlarda faol muloqotlar olib borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror o'sib bormoqda, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha muhim loyihalar amalga oshirilib, madaniy-gumanitar almashinuv kengaymoqda.

Mamlakatimizda birinchi integratsiyalashgan atom elektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirishga, shuningdek, tinch atom sohasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi.

Raqamli texnologiyalar, yoshlar va axborot siyosati, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolarning tashabbuslarini rivojlantirish borasidagi o'zaro hamkorlikni faollashtirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

O'ZA.

KO'P YILLIK SAMARALI MEHNAT E'TIROFI

Ko'ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida milliy estrada san'atining yorqin namoyandasi, O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirovning 80 yillik tavallud ayyomi munosabati bilan tantanalı tadbir bo'lib o'tdi.

Unda davlat va jamoat arboblari, madaniyat va san'at namoyandalari, ijodkor ziyolilar, "Yalla" ansambli a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari so'zga chiqib, Farrux Zokirovni ushbu qutlug' sana bilan samimiy qutladi, unga sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik va yangi-yangi ijodiy yutuqlar tiladi.

Ta'kidlanganidek, Zokirovlar sulolasi ko'p yillardan buyon milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atimizning rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston xalq artisti Karim Zokirov asos solgan san'at maktabi, milliy o'zbek estradasi asoschilaridan biri Botir Zokirovning boy ijodiy merosi xalqimizning ulkan ma'naviy boyligi sifatida yuksak qadrlanadi.

Butun bir oila va avlodning o'z umrini san'at va madaniyat ravnaqiga bag'ishlashi dunyoda kam uchraydigan noyob hodisa ekani alohida qayd etildi. Farrux Zokirov ana shu ulug' an'analarni munosib davom ettirib, milliy estrada san'atini yangi bosqichga olib chiqqan san'atkor sifatida e'tirof qilindi.

Tadbirida Farrux Zokirov nafaqat xalqimiz, balki butun Markaziy Osiyo, Hamdo'stlik mamlakatlari va turkiy ellarning sevimli san'atkori ekani ta'kidlandi. Uning O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti degan faxriy unvonlar bilan bir qatorda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdiston va Ingushetiya xalq artisti degan yuksak

unvonlarga sazovor bo'lgani san'atkorning ijodiga berilgan katta baho sifatida qayd etildi.

Bugun Farrux Zokirov deganda "Yalla" ansambli, "Yalla" deganda esa Farrux Zokirov siymosi ko'z oldimizda gavdalanadi. Mana 55 yildirki, ushbu mashhur jamoa nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoning nufuzli sahnalarida ham go'zal qo'shiqlar kuylab, millionlab muxlislar mehriini qozonib kelmoqda. "Yalla" ansambli jamoaviy estrada ijrochiligi yo'lga qo'yib, yurtimiz san'ati va madaniyati tarixida butunlay yangi sahifa ochdi. Bugun xalqimizning bayramlari, muhim tadbirlari va qutlug' ayyomlarini ushbu ansambli ijrosidagi qo'shiqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Tadbirida "Yalla" ansambli a'zolari Javlon To'xtayev, Abbas Aliyev, Temur Xalikov va Igor Xalikovning ham ko'p yillik samarali faoliyati e'tirof etildi.

Qayd etilganidek, "Yalla" ansambli ijrosidagi 400 dan ortiq qo'shiqlardagi milliy ruh va ohang chinakam xalq san'ati namunasiga, milliy madaniyatimizning "oltin fondi"ga aylangan. "Yallama yorim", "Yo'l bo'lsin", "Handalak", "Majnun", "Kelibdi" singari qo'shiqlar, "Choyxona", "Sumalak" kabi asarlar milliy qadriyatlarimizni tarannum etsa, "Toshkentim onam", "Uchquduq", "Shahrisabz" kabi qo'shiqlar yurtimizning betakror go'shalarini dunyoga keng tanitdi.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

ZOKIROV FARRUX KARIMOVICHNI «BUYUK XIZMATLARI UCHUN» ORDENI BILAN MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

O'zining noyob iste'dodi, samarali ijodiy faoliyati bilan zamonaviy o'zbek qo'shiqchilik san'atini rivojlantirish, xususan, milliy estrada ijrochiligi yangi bosqichga olib chiqishga qo'shgan beqiyos hisssasi, madaniyatimiz shuhratini dunyo xalqlari o'rtasida keng targ'ib etish, boy ma'naviy merosimizni asrab-avaylash borasidagi ulkan xizmatlari, shuningdek, "Yalla" ansambliga asos solib, uni xalqaro miqyosda tan olingan nufuzli ijodiy jamoaga aylantirgani, yosh iqtidor egalarining qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, navqiron avlodni Vatanga muhabbat

va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ibratli ishlari hamda tavalludining 80 yilligi munosabati bilan "Yalla" ansambli badiiy rahbari Zokirov Farrux Karimovich "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 15-aprel

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ ARTISTI FARRUX ZOKIROV IJODINI KENG TARG'IB QILISH HAMDA YOSH AVLODGA MUNOSIB YETKAZISH TO'G'RSIDA

Butun umrini san'atga baxshida etib kelayotgan, o'zbek milliy estradasini dunyoga tarannum qilib, yurtimizning madaniyati va san'ati nufuzini yuksaltirishga beqiyos hissa qo'shayotgan, serqirra faoliyati xalqlar o'rtasida ma'naviy ko'pri bo'lib xizmat qilayotgan ustoz san'atkor — O'zbekiston Respublikasi xalq artisti Farrux Zokirov ijodini keng targ'ib qilish va yosh avlodga munosib yetkazish maqsadida qaror qilaman:

1. Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 7-sonli bolalar musiqa va san'at maktabiga (keyingi o'rinlarda

— Maktab) Farrux Zokirov nomi berilsin.

2. Farrux Zokirov nomidagi 7-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib borish va yosh iste'dodlarni ko'llab-quvvatlash bo'yicha badiiy-pedagogik kengash tashkil etilsin hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar:

a) Maktabda:
(i) "Yalla" nomidagi bolalar ansambli faoliyati tashkil etilsin;

(Davomi 2-betda).



Xalqaro anjuman

O'ZBEKISTON VAKILLARI PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 152-ASSAMBLEYASIDA ISHTIROK ETMOQDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi ayni kunlarda Istanbul shahrida o'tayotgan Parlamentlararo Ittifoqning 152-assambleyasida faol ishtirok etmoqda.

Mazkur nufuzli anjuman bu gal "Kelajak avlodlar manfaatlarini yo'lida ishonchni mustahkamlash, barqaror tinchlikni ta'minlash va adolatni qaror toptirish" mavzuiga bag'ishlangan bo'lib, unda global ahamiyatga ega

masalalar muhokama qilinadi. Tashrif doirasida delegatsiya a'zolari bir qator muhim muloqot va forumlarda qatnashishi rejalashtirilgan. Parlament ayol a'zolari forumi, Qo'shilmaslik harakati parlament tarmog'ining

5-konferensiyasi hamda Yosh parlament a'zolari forumi shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, O'zbekiston delegatsiyasining parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan ikki tomonlama uchrashuvlari bo'lib o'tadi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Qonunchilik palatasi Kengashida

ISLOHOTLAR NATIJADORLIGIGA YO'NALTIRILGAN HUQUQIY NORMALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining navbatdagi yig'ilishida qator muhim masalalar ko'rib chiqildi.

Dastlab Qonunchilik palatasi tomonidan joriy yilning birinchi choragida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, kelgusi davr uchun ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Ta'kidlanganidek, Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini o'tgan davrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, "O'zbekiston — 2030"

strategiyasi hamda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" davlat dasturi asosida izchil tashkil etildi.

Prezident Murojaatnomasi quyi palata faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi. Hayotiy talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, xalqimizning turmush tarzini yaxshilash, Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim qonunlarni qabul qilish bugun

deputatlik korpusining eng ustuvor vazifasiga aylangan.

Aynan ushbu vazifadan kelib chiqib, o'tgan davrda Qonunchilik palatasi jami 28 ta qonunni qabul qildi. Bu hujjatlar aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlarni ko'llab-quvvatlash, xalqimiz salomatligini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, iqtisodiyotni rivojlantirish va barcha tarmoqlarni raqamlashtirish kabi muhim maqsadlarni qamrab olgan.

O'ZA.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ ARTISTI FARRUX ZOKIROV IJODINI KENG TARG'IB QILISH HAMDA YOSH AVLODGA MUNOSIB YETKAZISH TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

(ii) Yoshlar ijodiy laboratoriyasi hamda "Ustoz – shogird" an'analar asosida estrada yo'nalishi bo'yicha ijrochilik mahorat maktablari tashkil etilsin;

(iii) Maktab badiiy-pedagogik kengashi qarori bilan tashkil etilgan mahorat maktabining ustoz ijodkorlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har oyda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 5 baravari miqdorida rag'batlantirib borilsin;

b) Yoshlar ijodiy laboratoriyasi doirasida:

(i) 2026/2027 o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 3 nafardan bolalar musiqa va san'at maktabining iqtidorli o'quvchilaridan iborat guruh shakllantirilib borilsin hamda ta'lim davrida yozgi to'garakka jalb etilib, estrada xonandaligi bo'yicha maxsus bepul kurslarda o'qitilsin;

(ii) 2026/2027 o'quv yiliga qadar zamonaviy ovoz yozish va tasvirga olish studiyasi tashkil etilsin hamda u sahna jihoz va liboslari bilan ta'minlansin;

(iii) Maktab va yozgi to'garakka jalb qilingan o'quvchilarning ijod namunalari televideniye hamda xalqaro onlayn platformalarda namoyish etib borilsin;

v) Yoshlar ijodiy laboratoriyasini tashkil etish, uni jihozlash va hududlardan o'quvchilarni yozgi to'garakka jalb

etish, shu jumladan, ularning yashash, ovqatlanish va transport xarajatlari to'liq Davlat byudjetidan qoplansin;

g) har yili Maktab va yozgi to'garakning iqtidorli 5 nafar o'quvchilari hamda ularning o'qituvchi va konsertmeysterlarining nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etishi bilan bog'liq xarajatlari Davlat byudjetidan qoplansin. Bunda ushbu tanlovlar ro'yxati Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

d) 2026-2027-yillarda tajriba-sinov tariqasida xalqaro nufuzli tanlovlarda g'olib va sovrindor bo'lgan Maktab va yozgi to'garak o'quvchilari (jamoalari) hamda ularni tayyorlagan o'qituvchi (konsertmeyster) quyidagi miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantirilsin:

(i) "Gran-pri" va 1-o'rin sohibi 30 million so'm, o'qituvchi (konsertmeyster) 20 million so'm miqdorida;

(ii) 2-o'rin sohibi 20 million so'm, o'qituvchi (konsertmeyster) 10 million so'm miqdorida;

(iii) 3-o'rin sohibi 10 million so'm, o'qituvchi (konsertmeyster) 5 million so'm miqdorida;

j) ushbu bandedda nazarda tutilgan xalqaro nufuzli tanlovlarning g'olib va sovrindorlari hamda ularning o'qituvchi (konsertmeyster)larini rag'batlantirish tartibi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlansin, shuningdek, 2027-yil

yakunida mazkur amaliyotni respublika bo'yicha keng joriy etish yuzasidan taklif kiritilsin;

z) umumxalq bayram dasturlari va yuqori darajadagi anjumanlarning badiiy qismida Maktab va yozgi to'garakning iqtidorli o'quvchilari hamda ijodiy jamoalarining ishtirok etishiga shart-sharoitlar yaratilib, qo'llab-quvvatlansin;

i) Maktabda a'lo baholarga o'qiyotgan o'quvchilarning 10 nafarini Maktab badiiy-pedagogik kengashi qarori bilan Madaniyat vazirligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabi hamda maktab-internatlariga imtihonlarisiz qo'shimcha kvota asosida qabul qilish tartibi joriy etilsin.

4. Madaniyat vazirligi:

a) Maktabda "Ustoz – shogird" ijrochilik mahorat maktablarini tashkil etishda milliy estradamizning yorqin namoyandalari jalb etsin hamda ularning samarali faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsin.

b) Maktabni zarur musiqa cholg'u asboblari, zamonaviy jihoz va texnikalar, shuningdek, musiqa darsliklari va notalar

to'plamlari bilan ta'minlansin;

v) Farrux Zokirov ijro dasturi to'liq notalashtirilsin va ularning to'plamlari chop etilishi hamda respublika miqyosida ta'lim jarayonlariga keng tatbiq etilishini ta'minlansin;

g) Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda Maktab binosini kapital ta'mirlash va hududini obodonlashtirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda 2026-yil yakuniga qadar qurilish-ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkazsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi qarorida belgilangan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun Madaniyat vazirligiga 2026-yilda Vazirlar Mahkamasining zarira jamg'armasidan 10 milliard so'm ajratsin, 2027-yildan boshlab zarur mablag'larni Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsan javobgar etib madaniyat vaziri O.A.Nazarbekov belgilansin.

7. Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOEV

Toshkent shahri,
2026-yil 15-aprel

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

KO'P YILLIK SAMARALI MEHNAT E'TIROFI

Davlatimiz rahbari Farrux Zokirovning yurtimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi faol ishtirokiga ham alohida to'xtalib, uning yuzlab yoshlarga ustozlik qilib, ularni katta sahnalarga olib chiqayotgani, "Ovoz" kabi yirik loyihalar orqali yangi iste'dodlarga san'at sirlari va sahna madaniyatini o'rgatayotgani barcha uchun haqiqiy ibrat ekani ta'kidlandi.

Mintaqa ijodkorlari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik xalqlar o'rtasida ma'naviy ko'priq vazifasini o'tayotgani qayd etildi. Shuningdek, davlatimiz Farrux Zokirov kabi san'at darg'alarining xalqaro ijodiy loyihalari va yangi asarlarini hamisha qo'llab-quvvatlashi ta'kidlandi.

Tantana Farrux Zokirovning ko'p yillik samarali mehnati, milliy madaniyatimiz va san'atimizni rivojlantirish yo'lidagi fidokorona xizmatlarini munosib taqdirlash maqsadida Prezident tomonidan alohida farmon va qaror imzolangan e'lon qilindi.

Xususan, Yashnobod tumanidagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabiga Farrux Zokirov nomi beriladi.

Ushbu maktabda "Yalla" nomidagi bolalar ansambli, yoshlar ijodiy

laboratoriyasi, zamonaviy ovoz va video yozish studiyasi tashkil etiladi. "Ustoz – shogird" an'analar asosida estrada yo'nalishi bo'yicha ijrochilik mahorati sinflari yo'lga qo'yiladi, ustoz ijodkorlarning oyligiga qo'shimcha ustama to'lanadi. Maktabda a'lo baholarga o'qiyotgan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha alohida imkoniyatlar yaratiladi. Har yili respublika hududlaridan iqtidorli o'quvchilar mazkur maktabda o'z mahoratini oshirib boradi. Byudjet hisobidan iqtidorli o'quvchilar ustozlari bilan birga nufuzli xalqaro ko'rik-tanlovlarga yuboriladi va munosib rag'batlantiriladi.

Tadbirida ushbu ta'lim dargohi yurtimizdagi eng namunaviy maskanlardan biriga aylanib, Zokirovlar sulolasi yaratgan bebaho ijodiy merosni kelajak avlodga yetkazishga xizmat qilishga ishonch bildirildi.

Tantanal marosimida Prezidentimiz milliy san'atimiz va madaniyatimizni rivojlantirish yo'lidagi ko'p yillik beqiyos xizmatlari uchun Farrux Zokirovga "Buyuk xizmatlari uchun" ordenini topshirdi.

O'ZA.

Uchrashuv

ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHGA KELISHIB OLINDI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Norvegiya Qirolligining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Xelen Sand Andresen bilan uchrashdi.



Unda O'zbekiston va Norvegiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati va ularni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Suhbat chog'ida parlamentlararo aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, qonun ijodkorligi sohasida hamkorlikni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli aloqalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

Onlayn muloqot

O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN SHERIKLIK

O'zbekiston va O'mon parlamentlararo hamkorlik guruhlari a'zolarining onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirish, shuningdek, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport, turizm va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda O'zbekiston va O'mon o'rtasidagi munosabatlari izchil rivojlanib, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan sheriklik munosabatlari mustahkamlanmoqda. Bu esa yangi qo'shma tashabbuslarni ilgari surish va amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Uchrashuvda parlamentlararo aloqalarni institutsional jihatdan rivojlantirish, jumladan, hamkorlik guruhlari faoliyatini yanada faollashtirish, qo'mita vakillari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotlarni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, oliy darajada erishilgan kelishuvlarning ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Yakunda parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirishni davom ettirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

"Xalq so'zi".

Senatorlar – hududlarda

NARPAY NAMUNASIGA YUQORI BAHO BERILDI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev Samarqand viloyatiga xizmat safari doirasida Narpay tumanida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishdi.

Dastlab senator xalq deputatlari Narpay tumani Kengashi kotibiyatida bo'lib, deputatlarning hududlarda olib borayotgan ishlarini, aholi bilan muloqotlari hamda erishilayotgan natijalar yuzasidan atroficha fikr almashdi. Hududda kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlar e'tirof etildi. Xususan, mahallalardagi muammolarni aniqlash va ularni tizimli bartaraf

qilishga qaratilgan Narpay namunasiga yuqori baho berilib, ushbu ilgor tajribani respublikaning boshqa hududlarida ham keng joriy etish muhimligi ta'kidlandi.

Ijtimoiy soha, xususan, ta'lim tizimidagi islohotlar bilan tanishish maqsadida tumandagi 69-umumta'lim maktabi hamda 2-texnikum faoliyati o'rganildi. Ta'lim jarayonining sifati, pedagog kadrlar

salohiyati, o'quvchilarning bilim darajasi hamda mavjud muammolar tahlil qilindi.

Uchrashuvlar davomida yurimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, imzolanyotgan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari hamda Senat tomonidan qabul qilingan hujjatlarining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi. Xususan, Senatning 14-yalpi majlisida ma'qullangan muhim qonunlar haqida ham ma'lumot berildi.

Shu bilan birga, Qo'shrahbat tumanidagi "Qiyqim" MFYda

yashovchi fuqaro X. Xotamovning Senatga yo'llagan murojaati viloyat tashkilotlari mas'ullari ishtirokida joyiga chiqqan holda o'rganildi. Mazkur masala yuzasidan ishchi guruh tuzildi hamda viloyat hokimligi, kadastr, prokuratura, adliya organlari va xalq deputatlari viloyat Kengashi vakillari ishtirokida muhokama qilindi.

Uning yakunlariga ko'ra, ishchi guruhga 17-aprelga qadar o'rganishlarni tugallab, asoslantirilgan taklif va xulosalarni taqdim etish yuzasidan aniq tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

ISLOHOTLAR NATIJADORLIGIGA YO'NALTIRILGAN HUQUQIY NORMALAR



Bugun deputatlar barcha qonun loyihalarini odamlarning huquq va manfaatlarini mustahkam himoyalash pozitsiyasidan turib qizg'in muhokama etmoqda. Bunga jismoniy tarbiya va sport, pirotexnika buyumlari muomalasi, sud hokimiyatini moliyalashtirishga doir huquqiy hujjatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Deputatlar ham qonunchilikda tashabbuskor sifatida faol bo'lmoqda. Ular tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan – band solingan yoki garovga qo'yilgan mulk egalari huquqlari himoyasini kuchaytirish, ijtimoiy tarmoqlarda omniy tarzda fuqarolarning sha'ni va qadriyatlarini kamsitishning oldini olish, xalq deputatlari Kengashlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi.

Xususan, xalq deputatlari Kengashlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishni nazarda tutuvchi qonun bilan xalq deputatlari mahalliy Kengashi raisi o'rinbosari institutini joriy etish, unga bir vaqtning o'zida Kengash kotibiyati mudiri vazifasini bajarish hamda Kengash kotibiyati xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish vakolatlarini berish nazarda tutildi.

Qonunchilik palatasi faoliyati bosqichma-bosqich izchil raqamlashtirilmoqda. Qonun ijodkorligi jarayoni "project.gov.uz" va "e-qonun.uz" platformalari orqali samarali amalga oshirilayotir. Bu orqali qonun loyihalarining quyil palataga kiritilishidan tortib hamma bosqichdagi muhokamalar hamda Senatga yuborilganiga qadar bo'lgan barcha jarayon ushbu tizim orqali amalga oshirilishi ta'minlandi.

Bugungi kunda Qonunchilik palatasining barcha majlislari palataning rasmiy veb-sayti orqali jonli efirga uzatilyapti. Ko'plab qabul qilinayotgan qonunlar xalqchil va ta'sirchan uslubda OAVda muntazam yoritib borilmoqda. Kreativ medialoyihalar soni ortayotir. Deputatlar ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lmoqda. Bu esa keng jamoatchilik vakillarining palatada qonun loyihalarini muhokama etish va qabul qilish jarayoniga bo'lgan qiziqishini yanada oshiryapti.

Kengash yig'ilishida parlament nazorati yo'nalishida olib borilgan ishlarga ham alohida e'tibor qaratildi. "Hukumat soati", parlament eshituvlari va deputat so'rovlari

orqali davlat organlari faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazorati amalga oshirildi. Davlat byudjeti ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga ham ustuvor ahamiyati berildi.

Vazirlik va idoralarning maqsadli indikatorlarning bajarilishi yuzasidan hisobotlari quyil palata qo'mitalari majlislarida eshitildi. Davlat organlarining mansabdor shaxslariga jami 23 ta deputat so'rovi yuborildi.

Deputatlar saylov okruglarida samarali muloqotlar o'tkazmoqda. Aholi muammolari joyida o'rganilib, mahalliy ijro hokimiyati vakillari bilan birgalikda hal etilayotir.

2026-yildan bu borada juda muhim yangilik joriy etildi va xalqimiz tomonidan bu voqea juda katta mamnuniyat bilan qabul qilindi. Gap davlatimiz rahbarining "Tashabbusli byudjet jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori haqida bormoqda.

Eng avvalo, Prezidentimizning ushbu qarori deputat va saylovchi o'rtasidagi ishonch hamda muloqotni mustahkamladi. Deputatlar joriy yilning 23 – 28-mart kunlari ilk bor o'z hududlarida "Tashabbusli byudjet" jarayonlarida g'olib bo'lmagan loyihalar bilan tanishdi.

Birinchi mavsumda g'olib bo'lmagan har bir loyiha chuqur o'rganilib, uning zarurati baholandi. Umumiy miqdori 238,9 mlrd. so'm bo'lgan 150 ta loyiha deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib, deb topildi. Bu aholi uchun qo'shimcha yo'l, infratuzilma, ta'lim maskanlari, shifoxonalar qurilishi va ta'mirlanishiga asos bo'lmoqda.

Qonunchilik palatasining xalqaro aloqalari ham kengayib bormoqda. Xorijiy parlament delegatsiyalari, nufuzli tashkilotlar vakillari hamda elchilar bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Deputatlar xalqaro parlament tashkilotlari tadbirlarida faol qatnashdi.

Kengash a'zolari yangi texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi tezkor davr milliy parlamentimizning qonun ijodkorligi, nazorat va boshqa yo'nalishlariga sun'iy intellektni keng joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo qilayotganini qayd etdi.

Bugungi kunda qonunchilik jarayonlarining tezkor va sifatlil bo'lishi, parlament nazoratining samaradorligini ta'minlash hamda fuqarolar murojaatlarini tahlil qilishning ilgor usullarini joriy etishda Qonunchilik palatasi faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlandi.

Shundan kelib chiqib, yig'ilishda Qonunchilik palatasi Kengashining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasining faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi ham atroficha ko'rib chiqildi. Qonunchilik palatasi faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni izchil tatbiq qilish orqali uning ish samaradorligini yanada oshirishga erishilishi urg'ulandi.

Kengashda mustaqilligimizning 35 yilligini munosib kutib olish masalasiga alohida urg'u berildi.

Ta'kidlanganidek, davlatimiz rahbarining 2026-yil 1-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori xalqimiz tomonidan juda katta ko'tarinkiilik bilan kutib olindi. Ushbu hujjat mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va uning ijrosini ta'minlash doirasida albatta, deputatlar korpusi faol bo'ladi.

Kengashda bu yo'nalishdagi vazifalari aniq belgilab olindi. Siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mitalar joylarda targ'ibot ishlarini tashkil etadi. Unda mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi o'n yilda erishilayotgan natijalar, amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining mazmun-mohiyati aholiga yetkaziladi.

Prezident qarori ijrosi doirasida Qonunchilik palatasi qo'mitalari ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, amaliy uchrashuv va muloqotlar o'tkazadi.

"Mustaqil O'zbekiston – 35 yillik tarqatqiy yo'l: islohotlar, natijalar va istiqbollar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda "Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlashda milliy parlamentarizmning roli" mavzuida yoshlar konferensiyasini yuqori saviyada o'tkazish uchun hozirdanoq tayyorgarlik boshlandi.

Kengashda Prezidentimizning "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiyi Sohbiqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori xalqimiz va Vatanimiz hayotida juda katta ma'naviy voqea bo'lgani e'tirof etildi.

Qonunchilik palatasi mazkur qaror ijrosi doirasida ham aniq vazifalarni belgilab oldi. Jumladan, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Deputatlar Amir Temurning boy tarixi, uning davlatchilik asoslari, bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan juda muhim merosini keng jamoatchilikka yetkazadi.

Kengash yig'ilishi yakunida kuz tartibidagi barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

ISTE'DODLI YOSHLARIMIZNING YORQIN TIMSOLI

Bugungi kunda har bir yurtdoshimizning erishayotgan g'alabasi, yutuqi, ayniqsa, xalqaro miqyosda qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyati mamlakatimiz salohiyati va taraqqiyot yo'lining yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Faxr

Ana shunday unutilmas voqealardan biri – Javohir Sindorovning FIDE Da'vogarlar turnirida qo'lga kiritgan tarixiy g'alabasi bo'ldi.

Asosiy, bu nafaqat bir sportchining shaxsiy yutuqi, balki butun xalqimizning orzu-intilishlari, yoshlarimiz salohiyati va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining amaliy ifodasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Barchimizga yaxshi ayonki, Da'vogarlar turniri jahon shaxmat olimada eng nufuzli musobaqalardan biri. Unda dunyoning kuchli, tajribali va yuqori intellektual salohiyatga ega shaxmatchilari jam bo'ladi. Ana shunday keskin

raqobat muhitida Javohir Sindorov munosib ishtirok etib, yuksak mahoratini namoyon qildi va yakunda tarixiy natijaga erishdi.

Buyuk allomalar yurti bo'lgan O'zbekiston bugun ham zamonamizning intellektual yetakchilarini yetishtirmoqda. Ilm-fan, innovatsiya, madaniyat va sport sohalarida yurtimiz yoshlari dunyo bilan tengmang teng raqobatlasha olishini amalda namoyon qilmoqda. Javohir Sindorov ana shu yangi avlodning yorqin va munosib vakillaridan biri.



nafaqat ikki shaxmatchi o'rtasidagi bellashuv, balki intellektual sport madaniyatining eng yuksak namoyishi, "aqlar bellashuvi" bo'ldi. Ishonamizki, yosh vatandoshimiz o'zining teran tafakkuri, mustahkam irodasi va elu yurtga bo'lgan muhabbati bilan bu sinovda ham munosib ishtirok etadi.

Umuman, Javohir Sindorovning ushbu tarixiy g'alabasi – Yangi O'zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati, xalqimizning zakovati va mamlakatimizning xalqaro maydonda tobora yuksalib borayotgan nufuzining yorqin ramzi sifatida tarixga muhrlanajak.

Orzigul QOZIXONOVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi.

QOG'OZ EMAS, RAQAMLASHGAN TIZIM ISHLAYDI

Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida pensiyaga oid xizmatlarni ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha ko'rib chiqildi. Moddama-modda muhokamadan so'ng ushbu hujjat qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Deputat sharhi

Aytish joizki, mazkur qonunda, eng avvalo, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulayliklar yaratish, ularning huquq va manfaatlarini yanada mustahkam himoyalash maqsad qilingan.

Ilgari amaldagi tartibga ko'ra, fuqaroga nogironlik belgilanganidan so'ng mustaqil ravishda tegishli hujjatlarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga taqdim etishi zarur bo'lardi. Bu esa aholi, ayniqsa, nogironligi bor shaxslardan ortiqcha ovoragarchilik, vaqt va kuch talab qilardi.

Endilikda, qonunda mutlaqo yangi – fuqarolardan murojaat kutib o'tirmay proaktiv yondashuv joriy etilishiga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, fuqaroga nogironlik belgilanishi bilan bir vaqtda, uning murojaatini kutmag holatda, pensiya avtomatik

ravishda tayinlanishi amaliyotga kiritilmoqda. Bu – davlat xizmatlarini raqamlashtirish borasidagi islohotlarning samarali natijasi bo'lib, hujjat ishlari jarayonida inson omilini kamaytirish, ortiqcha qog'ozbozlikka barham berishga xizmat qiladi.

Ushbu qonunda nazarda tutilgan o'zgarishlar orqali jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy yengilliklar yaratiladi, endi ular turli idoralarga borishdan xalos bo'ladi, xizmatlardan esa hech qanday to'siqlarsiz to'g'ridan-to'g'ri foydalanishlari mumkin. Bu esa "Davlat – inson uchun" degan tamoyilning amaldagi yorqin ifodasidir. Shuningdek, qonunda yana bir



muhim yangilik nazarda tutilgan. Xususan, I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlangan shaxslar kengiyishi ish faoliyatini davom ettirib, kamida bir yil ish stajiga ega bo'lgan taqdirda, ularning pensiyasi har ikki yilda avtomatik tarzda qayta hisoblanadi. Bu ham fuqaroning murojaatisiz proaktiv usulda amalga oshiriladi. Mazkur norma, bir tomondan, fuqarolarni mehnat qilishga rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, ularning mehnati munosib baholanishini ta'minlaydi. Eng muhimi, nafaqa pulini olish uchun ortiqcha harakatga hojat yo'q – tizim uning manfaatini o'zi ta'minlaydi.

Qonunda yana bir muhim ijtimoiy himoya mexanizmi belgilanmoqda. Barchimizga ma'lumki, bugungi kunda ayrim pensiya oluvchilarning majburiy undiruvga qaratilgan qarzlari yoki boshqa ixtiyoriy, shartnomali kelishuvlari pensiyadan undirishga qaratilgan bo'lsa, u jami nafaqaning 50 foizi darajasida undiriladi. Hozirgi kunda shunday pensiya oluvchilar 45 mingdan ortiq tashkil qilmoqda. Joylarda olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, bu holat eng

kam pensiya oluvchilarning qo'lga tushadigan pullarning yanayam kamayib ketishiga va pensiya oluvchining hatto eng zarur ehtiyojlari uchun ham mablag'i yetmay qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bois qonun bilan har oylik chegirmalar miqdori pensiyaning 50 foizidan oshishi va chegirma qilingandan so'ng to'lanadigan pensiya miqdori eng kam iste'mol xarajatlardan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilanmoqda. Mazkur norma, o'z navbatida, aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga, ularning minimal yashash sharoitlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, xalq vakili sifatida hududlarda bo'lganimizda hamda saylovchilar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda mazkur hujjatga nisbatan qator amaliy va hayotiy takliflar bildirilgandi. Fuqarolar tomonidan pensiya tayinlash jarayonini yanada soddalashtirish, to'lovlarining shaffoqligini ta'minlash va ijtimoiy kafollatlarni kuchaytirishga qaratilgan fikrlar ilgari surilgandi.

Mana shunday fikr-mulohazalar qonunni takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda va uning xalqchillik ruhini yanada mustahkamlamoqda.

Albatta, har qanday islohotning muvaffaqiyati uning inson hayotiga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan o'lchanadi. Mazkur qonun esa, shubhasiz, minglab fuqarolar hayotini yengillashtiradi.

Nogironlik pensiyasini proaktiv shaklda tayinlash, pensiyalarni avtomatik qayta hisoblash va ijtimoiy kafollatlarni mustahkamlashga qaratilgan ushbu qonun – xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, zamon talablariga javob beradigan muhim hujjat. Biz, deputatlar, bundan buyon ham xalqimiz hayot sifati yaxshilanishi, ularning huquq va manfaatlari ishonchli himoyasi yo'lida barcha sa'y-harakatlarni izchil davom ettiramiz.

Nazira MUXTOROVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi.

O'zbekiston – Italiya: Do'stona munosabatlar yanada faollashadi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Italiya Respublikasi parlamenti Deputatlar palatasi deputati, "Italiya – O'zbekiston" do'stlik guruhi rahbari Fabritsio Bensoni boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Shuningdek, ikki mamlakat parlamentlari do'stlik guruhlarining yig'ilishi o'tkazildi.

Hamkorlik

Muloqot avvalida keyingi yillarda ikki davlat rahbarlarining o'zaro ishonch va do'stona munosabatlari tufayli O'zbekiston hamda Italiya o'rtasidagi strategik sheriklik aloqalari yanada mustahkamlanayotgani, ko'p qirrali rishtalar kengayayotgani, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik yuqori bosqichga chiqayotgani alohida qayd etildi.

Uchrashuvda parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik, sun'iy intellekt sohasida qo'shma loyihalar, ilm-fan va ta'lim almashinuvi, madaniy-gumanitar yo'nalishlar hamda turizm sohasida imkoniyatlarni kengaytirish masalalari bo'yicha fikr almashildi.

Muloqot davomida parlamentlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi ta'kidlanib, bu yo'nalish nafaqat ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashi, balki parlament a'zolari o'rtasida tajriba almashish imkonini yaratishi qayd etildi.

O'z navbatida, F. Bensoni samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan muvozanatli, ochiq hamda konstruktiv tashqi siyosat, ko'p lamli islohotlar va ularning natijalarini yuqori baholadi.

Shuningdek, delegatsiya rahbari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif unda chuqur taassurot qoldirganini, bu inshoot o'zbek xalqining boy tarixi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini yorqin namoyish etish barobarida, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun buyuk ajdodlar merosini o'rganishda katta maktab bo'lishini alohida ta'kidladi.

Konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosini ta'minlashda parlament a'zolari ishtirokini kuchaytirish, qonun loyihalarini ishlab chiqishda tajriba almashish, uchrashuvlarni jonli muloqot shaklida har yili kamida bir marotaba tizimli o'tkazib borish, parlament da'vatlari yo'nalishida hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari muhokama etildi.

Shu bilan birga, joriy yilda Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan 12-Global yoshlar parlament forumi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirilishiga qaratilgan 3-umumjahon forumiga Italiya delegatsiyasi taklif qilindi.

Uchrashuv do'stona va samimiy ruhda o'tdi.

"Xalq so'zi".

ENERGETIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR

"O'zbekneftgaz" AJ tizimida sifat o'zgarishlariga katta turtki bo'ldi

Energetika xavfsizligini mustahkamlash, jumladan, tabiiy gazga bo'lgan ichki talabni barqaror qondirish, iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz ta'minlash mamlakatimiz energetika siyosatining asosini tashkil etadi. Shu bois iqtisodiyot va aholining tabiiy gazga ehtiyoji ortib borayotgan hozirgi sharoitda "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Prezident joriy yilning o'tgan qisqa davrida tizim rahbariyati

Bizning suhbat

– Keyingi paytda bevosita davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan neft-gaz sanoati isloh qilinib, "O'zbekneftgaz" AJ va uning tizimida samaradorlikni oshirishga qaratilgan tizimli yangilanishlar amalga oshirilyapti. Aytinchki, bu sa'y-harakatlar sohada qanday sifat o'zgarishlarga sabab bo'lyapti? Uning dastlabki natijalari nimalarda ko'rinmoqda?

– Davlatimiz rahbari tomonidan energetika tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, neft-gaz tarmoqi tubdan isloh qilinmoqda. Bu jarayonda bizning o'zimizga tabiiy gaz qazib chiqarish dinamikasini tushirish, mavjud pasayish omillarini bartaraf etish hamda ularni qoplash vazifasi qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, jamiyatimiz tomonidan "Dolzab 100 kunlik" dasturi e'lon qilindi. Ishlar ana shu dastur asosida pishiq-puxta yo'lga qo'yilgani tufayli dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, joriy yilning birinchi choragida erishilgan samara va qisqartirilgan xarajatlar 3,0 trln. so'mni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, erishilgan samara hisobidan geologiya qidiruv, "3D" seysmik qidiruv ishlari, burg'ilash va qazib chiqarish hamda mahsulotlarni chuqur qayta ishlash tadbirlari moliyalashtirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu kelgusida yangi konlarning ochilishi, uglevodorodlarni qazib chiqarish hajmining oshishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, kadrlar masalasida ham ancha o'zgarishlar amalga oshirildi, jumladan, xodimlar soni ixchamlashtirilib, joylardagi ishchi-xodimlar ish haqlari oshirildi. Albatta, bu ham ish samaradorligiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatyapti.

– 2026-2027-yillarda tabiiy gaz qazib chiqarish hajmini barqaror darajada ta'minlash maqsadida geologiya-qidiruv va geologik-texnik ishlarni kengaytirish rejalashtirilgan. Bugungi kunda tabiiy gaz zaxiralarimiz istiqbolli qanday baholanyapti? Ayrim mustaqil ekspertlarning yaqin

bilan olti marta uchrashib, sohani rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab bergani ham tasdiqlaydi.

Muxbirimiz "O'zbekneftgaz" AJ boshqaruvi raisining moliya, transformatsiya va xususiyashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosari Suhrob Hamroyev bilan neft-gaz tarmog'ida qazib chiqarish hajmini barqarorlashtirish va yangi zaxiralarni o'zlashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar hamda tizimdagi katta o'zgarishlar haqida suhbatlashdi.

Yurtimizda energetika barqarorlikni ta'minlash maqsadida shu tariqa tabiiy gaz zaxiralari yil sayin ko'paytirib borilaveradi. Jumladan, 2026-yilda "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan tabiiy gaz zaxiralarni o'stirish hajmi 25 mlrd. m³ qilib belgilangan.

Joriy yilning birinchi choragida yangi quduqlarni ishg'a tushirish, mavjudlarni ta'mirlash va texnologik tadbirlarni amalga oshirish hisobiga qo'shimcha hajmlar ta'minlandi. Bu boradagi ishlar ko'lamini yil davomida yanada kengaytirishni maqsad qilganmiz.

– Geologiya-qidiruv ishlari haqida gap ketganda, odamlar ko'z oldida, eng avvalo, Surxondaryo viloyatida ro'y bergan texnogen holatlar keladi, desak, adashmaymiz. Yangi istiqbolli maydonlarni izlash, quduqlarni chuqur burg'ilash va geologik qatlamlarni o'rganish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash masalasida amaliyotda qanday texnologik va innovatsion yechimlar qo'llanilmoqda?

– Xavfsizlikni ta'minlash, ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilyapti. Ayniqsa, burg'ilash va dasa ishlari ustidan xalqaro standartlar asosida nazoratni kuchaytirish maqsadida supervayzing tizimini yo'lga qo'yish, geologik-gidrodinamik modellash va qazib chiqarish dasturlarini yanada puxta shakllantirish bo'yicha choralar belgilangan.

Shundan kelib chiqib, dastlab quduqning geologik qatlamlari chuqur o'rganiladi, xavfsizlikni ta'minlovchi barcha zarur chora-tadbirlar ko'riladi. Chunki quduq anomol yuqori bosimli bo'lishi ehtimoli bo.

Shu sababli quduq ustiga o'rnatiladigan mukammal jihozlar bosim ostida sinovdan o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilgan quduqlarni burg'ilashda xodimlar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish uchun barcha turdagi himoya vositalari bilan to'liq ta'minlanadi.

Ushbu yo'nalishdagi texnologik va innovatsion yechimlar haqida gap ketganda, jamiyat markaziy apparatida burg'ilash ishlari boshqarish markazi tashkil etilib, burg'ilash jarayonlarini 7/24 tartibida nazorat qilish yo'lga qo'yilganini aytish joiz. Bundan tashqari, favqulodda holatlar va ochiq neft-gaz favvoralarining oldini olish maqsadida harbiylashtirilgan qismini yangi texnologik uskuna hamda jihozlar bilan ta'minlash, xodimlar malakasini oshirish va ko'nikmalarini kuchaytirish uchun virtual trenajyorlar orqali tayyorlash, xorijda tajriba oshirish choralari ko'rilmoqda.

– Sohada qo'shimcha qiymat yaratish, ya'ni gazni chuqur qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymat zanjirini hosil qilish, import o'rnini bosuvchi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qanday yangi loyihalar amalga oshirilyapti?

– Import o'rnini bosuvchi va eksportbop qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish "O'zbekneftgaz" AJ bugungi faoliyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Natijada mazkur yo'nalishda ko'plab loyihalar ijrosiga kirishilgan.

Ular orasidan "Uzbekistan GTL" zavodi negizida chiziqli alkilbenzol (LAB) ishlab chiqarish loyihasini alohida keltirishni istardim. Sababi, hozirgi kunda O'zbekiston LAB (Linear Alkylbenzene) mahsulotlari bo'yicha to'liq importga bog'lanib qolgan bo'lib, unga ichki ehtiyoj yilliga taxminan 25 – 30 ming tonnanı tashkil etadi. Maishiy kimyo bozori rivojlangani sayin unga talab yilliga o'rtacha 3 – 5 foizga o'sib bormoqda. Natijada maishiy kimyo vositalari ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar LAB mahsulotini katta valyuta evaziga Rossiya, Eron, Xitoy, Saudiya Arabistoni kabi davlatlardan sotib olishyapti. Bu esa tayyor mahsulot – kir yuvish vositalari narxining raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Yangi loyiha amalga oshirilgach, LAB mahsulotiga bo'lgan ichki talab to'liq qoplanib, importga hojat qolmaydi. Eng asosiy, loyiha to'liq ro'yobga chiqarilgach, O'zbekistonda har yili 40 – 50 mln. dollar miqdoridagi xorijiy valyuta tejab qolinadi.

Ayni paytda Qozog'iston Respublikasining "KMG Petrochem" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ushbu loyihaning loyihaoldi hujjatlari ishlab chiqilmoqda.

– Xabaringiz bo'lsa kerak, "O'zbekneftgaz" AJning homiylik to'lovlarini to'xtatish haqidagi qarorlari ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo'ldi. Xarajatlarni maqbullashtirish, sohada oid bo'lmagan aktivlarni tasarrufdan chiqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda qanday rol o'ynaydi?

– Bu savolga javob berishdan oldin, avvalo, "Sohaga oid bo'lmagan aktivlar" haqida tushuncha berish maqsadga muvofiq. Ya'ni u korxonaning asosiy faoliyatiga oid bo'lmagan hamda ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmaydigan aktivlarga nisbatan aytiladi.

Mazkur aktivlarni tasarrufdan chiqarish hamda homiylik to'lovlarini to'xtatish orqali sarflanayotgan saqlash xarajatlarni iqtisod qilish va operatsion xarajatlarni maqbullashtirishga erishiladi. Tejab qolingan resurslar esa ishlab chiqarish jarayonida zarur bo'lgan xomashyo va materiallar xarid qilish, tabiiy gaz zaxiralarni ko'paytirish va qazib olish barqarorligini ta'minlash, ta'mirlash va butlash, geologiya ishlariga yo'naltiriladi.

– Ijtimoiy tarmoqlarda soha xodimlari, aniqrog'i, quyi tizim ishchilarining o'ylig maoshi kamligi va ularning vaqtida berilmasligi bilan bog'liq e'tirozlarga ham tez-tez duch kelamiz. Yangi rahbariyat ushbu yo'nalishda qanday o'zgarish qilyapti?

– Qaysi soha bo'lmagan, uning barqaror rivojlanishi, istiqbol, eng avvalo, inson kapitaliga bog'liq. Shuning uchun "O'zbekneftgaz" tizimida inson kapitaliga ustuvor ahamiyat qaratilib, xodimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va manfaatlari, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish alohida muhim yo'nalish sifatida belgilandi.

Yuqorida qayd etgan iqtisodiy samaraning ma'lum bir qismi xodimlarning o'ylig maoshlarini oshirish, issiq ovqat, mavsumiy va maxsus kiyim-bosh bilan ta'minlash, talabga javob bermaydigan eski avtobuslar o'rniga xavfsiz hamda qulay bo'lgan, zamonaviy avtobuslar sotib olish kabi muhim ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga sarflanadi. Misol uchun, Ustyurt qo'ng'iroqlaridagi ishchilar uchun 200 o'rinni yotoqxona, 160 o'rinni oshxonaga va anjumanlar zali qurilmoqda. Shuningdek, kon va obyektlardagi mavjud ishchilar shaharchasi bosqichma-bosqich kapital ta'mirlanishi, gigiyenik anjomlarni yangilash hamda zarur maishiy jihozlarni xarid qilish va kir yuvish xonalarni tashkilashtirishga ham mablag'lar yo'naltiriladi.

"O'zbekneftgaz" AJ va tizimdagi

Yurtimizda Janubiy Koreyaning "EDCF" jamg'armasi ishtirokida umumiy qiymati 88,8 mln. AQSH dollarilik "Hududiy tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash" loyihasi amalga oshirilmogda.

Ertaning umidi

BUXOROLIK O'QUVCHI STENFORDDA O'QIYDI

Shu kunlarda Buxoroning dongdor hunarmandlaridan biri Baxshulla Jumayevning kayfiyati o'zgacha. Zardo'zlikni san'at darajasiga ko'tarib, dunyoning yigirmadan ziyod davlatlaridagi nufuzli xalqaro ko'rgazmalarda qatnashgan, nafaqat O'zbekiston, balki xorijda ham ko'plab shogirdlari bo'lgan yurtdoshimiz bu gal shaxsiy muvaffaqiyati emas, nabirasi erishgan yutuqdan boshi osmonda.

Amirbek dunyoning nufuzli Stenford va Braun universitetlari hamda Kaliforniya texnologiya institutiga to'liq grant asosida o'qishga qabul qilindi, - deydi u quvonchini do'st-birodarlari bilan baham ko'rarkan. - Qarang, farzandunabiralimiz bizdan o'zib ketishyapti. Shunday kunlarga yetkazganiga shukur. - Danagi mevasidan shirinda, - deydi bunga javoban hunarmand-musavvir Aslon Ramazonov. - Qolaversa, bola boshdan, deyishadi. Muzeymonand ustaxonangizda Amirbekning xorijiy sayyohlar bilan ingliz tilida biyron gaplashib turganiga, mehmonlar uning bilimi, aqlu zakovatiga tan berishganiga ko'p bor guvoh bo'lganman.



Buxoro shahridagi 1-umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchisi Amirbek Baxshullayev erishgan natija chindan ham havas qilsa arzigulik. 16 yoshli yigitcha yaqinda muddatidan avval chet elning beshta universitetida tahsil olish imkonini beradigan, umumiy miqdori 2 million AQSH dollari miqdoridagi grant g'olibi bo'ldi. Amirbekning bu yutuqi mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi, albatta.

Hunarmandlar oilasida tug'ilib o'sdim, - deydi Amirbek. - Eski shaharning qoq markazida yashaymiz. Oilaviy ustaxonamizdan sayyohlarning qabali uzilmaydi. Shu paytga qadar mingdan ziyod xorijiy turistlar bilan suhbatlashganman. Ustozlarimning ko'magi, qolaversa, jonli muloqot til o'rganishga ishtiyogimni kuchaytirdi. Stenford universitetining to'liq grantini qo'lga kiritdim. Bu oliy o'quv yurtida shartnoma to'lovlaridan tashqari transport, yotoqxona, oziq-ovqat xarajatlari ham to'lab beriladi. Yadro muhandisligi yo'nalishida tahsil olmoqchiman. "Yadro sintezi harakatlantiruvchisi" deb nomlanadigan texnologiya ustida ishlash niyatim bor. Tahsildan so'ng O'zbekistonga qaytib, shu soha rivoji uchun xizmat qilmoqchiman. Toki elektr energiyasi bilan bog'liq muammo bo'lmasin.

Bundan tashqari, u zardo'zlik uy-muzeyini yanada kengaytirish, shu orqali boy milliy madaniyatimiz dovrug'ini dunyoga keng yoyishga hissa qo'shish niyatida.

Bilishimcha, O'zbekiston chet elda o'qishni rag'batlantiradigan kam sonli davlatlardan biridir, - deya davom etadi Amirbek. - Yurtimizda biz, yoshlarning sifatli ta'lim olishimiz uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Men tengdoshlarimni shu imkoniyatlardan oqilona foydalanishga da'vat etaman. E'tiborlisi, viloyatda A. Baxshullayev singari bilimga, o'qib-o'rganishga tashna yoshlar safi tobora kengaymoqda. Biz bu o'rinda birgina misol bilan cheklanmoqchimiz. Buxoro shahridagi 26-umumta'lim maktabi o'quvchilari Dilnura Saidova hamda Sabina Qoyirova ham yaqinda xalqaro va milliy sertifikatlar asosida ingliz tili, ona tili, matematika va tarix fanlaridan 189 ballidan to'plab muddatidan oldin oliy o'quv yurtida tahsil olish imkonini qo'lga kiritdi.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi")

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING YANGI «O'SISH NUQTASI»

Global raqobat misli ko'rilgan darajada kuchaygan XXI asrda yangi chaqiriqlar va iqtisodiy yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Chunki bugun bozor faqat hudud yoki tabiiy resurs bilan emas, balki ilg'or texnologiyalar, tezkorlik va innovatsiya bilan o'lchanmoqda. Shu ma'noda, bugungi davr insoniyatdan mutlaqo yangi yondashuvni talab etmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, blokcheyn tizimlari va turli raqamli platformalar iqtisodiy munosabatlardan tortib ijtimoiy hayotgacha bo'lgan barcha sohalarni tubdan o'zgartiryapti.

Nuqtai nazar

Ishlab chiqarish uslubini, xizmat ko'rsatish madaniyatini, ta'lim tizimi - barchasi raqamlashuv jarayoni ta'sirida qayta shakllanmoqda. Ushbu o'zgarishlarda "Game Development" (Raqamli o'yinlar ishlab chiqarish), qisqacha aytganda, "gamedev" sohasi ham alohida ahamiyatga ega. Ilgari unga ko'ngilochar yo'nalish sifatida qaralgan bo'lsa, endilikda mazkur jabha iqtisodiyotning milliardlab dollar aylanmaga ega strategik tarmoqlaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Tero, videoo'yinlar industriyasi jahon iqtisodiyotining jadal o'suvchi segmentlari qatoridan joy olib ulgurdi.

O'yinlar segmentidan yiliga 40 milliard AQSH dollaridan ortiq daromad ko'radi. "Sony Interactive Entertainment" kompaniyasining ushbu yo'nalishdan yillik tushumi 28 milliard dollar. "Microsoft Gaming" ("Xbox" va "Activision Blizzard" tarkibida) esa 21 milliard dollardan ziyod moliyaviy natijalar qayd etgan. Ularning asosiy mahsulotlari intellektual kontent va raqamli xizmatlarga to'g'ri keladi. Ya'ni asosiy qiymat bilim va g'oyada.



Ulkun salohiyat

Xalqaro tahlil markazlari ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib global videoo'yinlar bozori hajmi qariyb 190 milliard AQSH dollariga yetgan. Bu raqam kino va musiqa sanoatining umumiy daromadidan ham oshib ketdi. Chunki hozirgi paytda Yer yuzida 3,6 milliarddan ortiq insonlar videoo'yinlardan foydalanadi.

Boshqacha aytganda, har ikki internet foydalanuvchisidan biri ushbu bozor ishtirokchisiga aylangan. Ushbu auditoriya ulkan bozor, katta iste'molchi qatlam va doimiy o'sib borayotgan talab, demakdir. Bozor tuzilmasiga nazar tashlansa, mobil o'yinlar yetakchilik qilayotgani oydinlashadi. Ular umumiy daromadning qariyb 57 foizini tashkil etadi. Konsol platformalari ulushi 23 foiz atrofida, shaxsiy kompyuterlar uchun yaratilgan mahsulotlar esa 20 foizni egallaydi.

Raqamlardan ayonki, ushbu industriya bir tomonlama emas, barcha platformalar kesimida barqaror rivojlanayotir. Bunga yirik kompaniyalar faoliyati yaqqol misol bo'la oladi. Aytaylik, Xitoyning "Tencent" kompaniyasi

Milliy tajribada yangi imkoniyatlar

Yurtimizda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish izchil davom etmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida axborot texnologiyalari va raqamli xizmatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, o'tgan yili AT xizmatlari eksporti ilk bor 1 milliard AQSH dollariga yetgan bo'lsa, 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga olib chiqish rejalashtirilgan. Shubhasiz, bu jarayonda "gamedev" muhim o'ranga ega.

Bugun mamlakatimizda o'yin ishlab chiqaruvchi 50 dan ortiq studiyalar faoliyat yuritmoqda. Yillik daromad hajmi 60 million AQSH dollariga yaqin. E'tiborli jihati, tushumning 90 foizdan ortig'i eksport hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa sohaning tashqi bozorda raqobatbardosh ekanini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda "gamedev" va unga yaqin yo'nalishlarda 15 mingdan ziyod yosh

mutaxassis hamda havaskorlar mehnat qilmoqda. Ushbu soha katta zavod, xomashyo yoki murakkab logistika talab qilmaydi. Asosiy resurs bilim, kreativ tafakkur va texnologik mahoratdir. Masalan, 30 - 50 nafar xodimga ega o'rta hajmdagi studiya yiliga 1 - 3 million dollarlik aylanma yaratishi mumkin. Agar O'zbekiston jahon bozorining bor-yo'g'i 0,05 foiz ulushini egallasa ham, yillik eksport hajmi 95 million dollarga yetadi. Bu raqamlar imkoniyat qanchalik katta ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Barqaror o'sish poydevori

Sohaning kelajagi malakali kadrlarga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, Xalqaro Nordik universitetida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Bu yerda dasturlash, kompyuter grafikasi, "3D" modellashtirish, o'yin dizayni va sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy o'quv dasturlari asosida o'qitilmoqda.

Talabalar startap tashabbuslariga jalb

So'nggi yillarda davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar sohaning rivojiga jiddiy turtki bermoqda. Xalqaro raqamli texnologiya markazlari tashkil etildi. AT infratuzilmasini kuchaytirish maqsadida soliq va investitsiya imtiyozlari joriy qilindi.

2026-yil rejasiga ko'ra, Toshkent, Buxoro, Farg'ona shaharlarida hamda Toshkent viloyatida yangi data markazlari va superkompyuterlar ishga tushiriladi. Shu bilan birga, 15 ta oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellekt laboratoriyalari tashkil etish ko'zda tutilgan. Bu infratuzilma sog'liqni saqlash, transport, qishloq xo'jaligi, bank-moliya va jamoat xavfsizligi kabi sohalarga xizmat qiladi. Shuningdek, "gamedev" va kreativ industriya loyihalari uchun ham mustahkam texnik baza yaratadi. Rejalarga muvofiq, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida 100 dan ortiq loyihalar amalga oshiriladi.

Videoo'yinlar sanoati mamlakatimiz uchun yangi iqtisodiy imkoniyat eshigini ochmoqda. Bu yo'nalish yoshlar intellektual salohiyatini ko'tarib, bandligini ta'minlaydi, yurtimizning xalqaro maydondagi raqamli imijini mustahkamlaydi.

Davlat, ta'lim muassasalari va xususiy sektor bir maqsad sari uyg'un harakat qilsa, O'zbekiston Markaziy Osiyoda "gamedev" va kreativ raqamli sanoat markazlaridan biriga aylanishi muqarrar. Binobarin, raqamli iqtisodiyot sharoitida qiymat yer osti boyliklari bilan emas, inson aqli va g'oyasi bilan yaratiladi. "Gamedev" esa aynan ushbu intellektual kuchga tayanadigan sohadir. Shu jihatdan uning kelajak drayveriga aylanishi tobora ravshanlashib borayotir.

Akmal G'ANIYEV, Xalqaro Nordik universitetining Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi.

2026-yil rejasiga ko'ra, Toshkent, Buxoro, Farg'ona shaharlarida hamda Toshkent viloyatida yangi data markazlari va superkompyuterlar ishga tushiriladi. Shu bilan birga, 15 ta oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellekt laboratoriyalari tashkil etish ko'zda tutilgan. Bu infratuzilma sog'liqni saqlash, transport, qishloq xo'jaligi, bank-moliya va jamoat xavfsizligi kabi sohalarga xizmat qiladi. Shuningdek, "gamedev" va kreativ industriya loyihalari uchun ham mustahkam texnik baza yaratadi.

Bog'dorchilik sanoatlashadi

Sirdaryo viloyatida bu yil bog'dorchilikda katta buriilish bo'lishi kutilayotir. Gap shundaki, ushbu soha sanoatlashgan tizimga o'tkazilmoqda. Ayni maqsad yo'lida joriy yilda 2 ming gektar yangi intensiv bog' va tokzorlar barpo etiladi.

Intilish

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatdagi mavjud bog'larning aksariyati ma'naviy eskirgan va kutilgan hosilni bermayapti, - deydi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Sirdaryo viloyati bo'limi boshlig'i Akmal Qultoyev. - Shu bois ayni paytda asosiy urg'u sifat va yuqori hosildorlikka qaratilayotir. Ilgari

ko'chat ekish faqat erta bahor yoki kech kuz bilan cheklangan bo'lsa, bugun viloyatimizda bu boradagi agrotexnologiyalar o'zgaradi. Endilikda yil davomida bog' yaratish imkoniyati mavjud. Xususan, aprel oyida ham ko'chat ekish to'xtagan yo'q. Yopiqlik ko'chat tayyorlagan texnologiyasi tufayli issiq oylarda ham nihol ekib, uni o'stirish mumkin

intellektual kuchga tayanadigan sohadir. Shu jihatdan uning kelajak drayveriga aylanishi tobora ravshanlashib borayotir.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi")

MILLIY O'YINLARIMIZ UNUT BO'LMASIN

Milliy o'yinlar azaldan xalqimiz hayotining muhim qismi bo'lib kelgan. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalaridan tashqari, 2023-yil 1-martdan boshlab milliy sport turlari bo'yicha ham uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalari o'tkazib kelinmoqda.

Mulohaza

Asrlar davomida hayotimizning ajralmas qismi bo'lib kelgan "chillak", "lanka", "belbog", "chag'alay", "churrak", "o'yab top", "to'rt tosh", "toshotar", "quloq cho'zma", "guldir-gup", "tayoqlar jangi", "ko'pkari", "yelkada kurash" kabi yuzlab juda boy va rang-barang o'zbek xalq o'yinlari bor. Ular yoshlarga oriyat, matonat, sadoqat, ma'naviy va jismoniy komillikdan sahoq beradi.

Bo'sh vaqt topdik deguncha, "oq suyak", "zar qalpoq", "chuchmo'ma", "zuvullatarni jon deb o'ynardik, - deydi bo'sunlik 78 yoshli Xoliyor ota. - To'rt-beshata kattalar birlashsa, bizni kurashtirib ham qo'yardi. Kim o'yinlarda zo'r bo'lsa, kurashda ham qo'li baland kelardi. Xalq o'yinlari chaqqonlik, chidamlilik, epchillik, topqirlik va mehnatsevarlik tuyg'usini tarbiyalaydi.

Shuningdek, bolalar o'yinlarida yengil mutoyiba, musobaqa ruhi va jamoaviy birlikka intilish kabi jihatlar ham ko'zga tashlanadi.

O'zbek xalq o'yinlarining har bir hududga xos turlari mavjud, - deydi nafaqadagi muallim, filolog Ashurali Omonov. - O'g'il bolalar yoki qizlar, erkaklar va ayollar o'yinlari bir-biridan farqlanadi. Bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki o'yinlar mavjud. Ayrim o'yinlar dehqonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilik kabi kasblar bilan bog'liq.

Aslida, avlodlar almashgan sayin milliy qadriyatlar ham mazmunan boyib boraverishi kerak. Biroq bugun buning aksini ko'ryapmiz. "Hunarmand" uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i Muhayyo Jo'rayeva bu haqda shunday deydi:

Nazarimda, buning bosh sababi zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga

shiddat bilan kirib kelishi. Bugun bolalarning bo'sh vaqti ko'proq telefon, kompyuter yoki internet o'yinlari bilan o'tmoqda. Ilgari mahalla maydonlari bolalarning kulgisiga to'lar, har bir ko'cha bir turdagi o'yin bilan mashhur va mashg'ul bo'lardi. Hozir esa ko'p joylarda ana shunday maydonlar bo'sh. Bolalarning jamoa bo'lib o'ynash madaniyati asta-sekin kamayib bormoqda.

Yana bir sabab - milliy o'yinlarning tabiiy muhiti sekin-asta yo'qolib borayotganida. Ilgari bolalar uchun eng katta maydon qishloq hovlisi, mahalla ko'chasi yoki keng dala bo'lgan. Hozir transport harakatining ko'payishi va turmush tarzining o'zgarishi bu kabi o'yinlar uchun qulay sharoitni kamaytirib qo'yganday. Natijada ko'plab o'yinlar faqat kattalar xotirasida saqlanib qolgan. Ayrim hollarda esa milliy o'yinlarning mazmuni yoshlarga yetarlicha tushuntirilmayotgani ham seziladi. Masalan, maktablarda jismoniy tarbiya daralarida, asosan, zamonaviy sport turlariga e'tibor qaratiladi, xalq o'yinlari esa ba'zan epizodik tarzda eslanadi, xolos.

Milliy qadriyatlarini saqlab qolishda targ'ibot masalasi juda muhim, - deydi Termiz

shahridagi 3-umumta'lim maktabi direktori Gulnora Xolmamatova. - Bugungi axborot makonida bolalar va yoshlarning e'tiborini jalb etadigan turli o'yinlar, musobaqalar, virtual mashg'ulotlar ko'p. Milliy o'yinlar esa aksar hollarda faqat bayramlar, sayillar yoki ayrim tadbirlar doirasidagina namoyish etiladi. Agar ularni tizimli ravishda targ'ib etish, maktab, mahalla va ommaviy tadbirlar orqali yoshlar hayotiga yanada yaqinlashtirishga e'tibor qaratilsa, ishonamizki, bu an'analar yana jonlanadi.

Ehtimol, bugun milliy o'yinlarimizga oshno tutinayotgan barcha o'g'il-qizlar ham mashhur sportchi bo'lib nom qozonmas. Biroq ular umri sog'lom turmush tarzi tamoyillari asosida shakllantiradi, ma'nan va jismonan yetuk, eng muhimi, o'z fikriga ega irodali inson bo'lib kamol topadi.

Shunday ekan, yoshlarimiz ongi va qalbida tarix hamda qadriyatlarga hurmat, elu yurtga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirishda mana shu odiy o'yinlarning ham o'rmi katta ekanini unutmasligimiz dardor.

Farhod ESONOV ("Xalq so'zi")

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 329. Buyurtma G-1242. 23 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taaboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oq bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismatov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir F. Bozorov. Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 03.15 Topshirildi - 03.30 1 2 3 4 5 6

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XXI xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi